

# **“Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom yoshlar o‘rtasida “Yosh kitobxon” Respublika tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tanlov yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

3. Tanlovni o‘tkazishda Yoshlar ishlari agentligi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tashkiliy-amaliy ishlar bo‘yicha, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ilmiy-ijodiy ishlar bo‘yicha hamkorlik qiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan barcha yoshlar Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” tanlovlarida 1-o‘rinni egallagan ishtirokchilar kelgusi yillarda Tanlovda ishtirok eta olmaydi, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” tanlovlarida 2, 3-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar bir yildan keyin tashkil etiladigan Tanlovda ishtirok etishi mumkin.

Ishtirokchilar talabidan kelib chiqib, ularning Tanlov jarayonida qoraqalpoq va rus tillaridan foydalanishiga ruxsat beriladi.

5. Tashkiliy qo‘mita Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

## **II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

6. Qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

7. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

yoshlarning barcha qatlamlarini kitob o‘qishga da’vat etish hamda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish;

yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko‘nikmalarini yanada yuksaltirish;

qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya,

madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash;

yoshlarni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish.

### **III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, baholash mezonlari**

8. Tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish vazifasi Tashkiliy qo‘mita zimmasiga yuklatiladi.

Tashkiliy qo‘mita:

tanlovni o‘tkazish borasida qaror qabul qiladi;

ekspertlar komissiyasi va hakamlar hay’ati tarkibini tasdiqlaydi;

adabiyotlar ro‘yxatini tasdiqlaydi;

tanlovning asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlov o‘tkazish borasida oshkoralikni ta’minlaydi;

tanlov ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;

mazkur Nizomga asoslangan holda tanlovni o‘tkazilishini tashkil etadi.

9. Tanlovga ishtirokchilar onlayn tarzda ariza topshirish orqali qabul qilinadi.

10. Tanlovda yoshlar o‘zlari yashayotgan yoki o‘zlari o‘qiyotgan (ishlayotgan) muassasasi joylashgan hududdan ishtirok etadi.

11. Tanlov quyidagi uchta yosh toifasi bo‘yicha alohida-alohida tartibda o‘tkaziladi:

10 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2024-yilgi bosqichda 2010–2014-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar);

15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2024-yilgi bosqichda 2005–2009-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar);

20 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2024-yilgi bosqichda 1994–2004-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar).

2025-yilgi bosqichlardan yosh toifasi bo‘yicha tug‘ilish yili ham o‘sib boradi.

#### **12. Tanlov besh bosqichda tashkil etiladi.**

**Birinchi bosqich** tanlovning arizalar qabul qilish va mahalla bosqichi bo‘lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralanadi.

Tanlovga arizalar birinchi bosqich boshlangan kunga qadar onlayn qabul qilinadi. Test sinovi sentabr oyining ikkinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi. Unda ariza

topshirgan yoshlar ilmiy-ommabop, o'zbek va jahon adabiyotiga, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 25 ta test savollariga javob berishadi.

Har bir to'g'ri javob uchun 4 balldan belgilanadi. Test natijalariga ko'ra mahallalar kesimida har bir yosh toifasi bo'yicha eng ko'p ball to'plagan 1 nafar ishtirokchi (1 tadan ko'p ishtirokchi o'rtasida qayta test olish orqali saralanadi) keyingi (ikkinchi) bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

**Ikkinchi bosqich** tanlovning sektor bosqichi bo'lib, oktabr oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi, unda ishtirokchilar ilmiy-ommabop, o'zbek va jahon adabiyotiga, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 25 ta test savollariga javob berishadi.

Har bir to'g'ri javob uchun 4 balldan belgilanadi. Test natijalariga ko'ra mahallalar kesimida har bir yosh toifasi bo'yicha eng ko'p ball to'plagan 3 nafar ishtirokchi (3 tadan ko'p ishtirokchi o'rtasida qayta test olish orqali saralanadi) keyingi (uchinchi) bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

**Uchinchi bosqich** tanlovning tuman (shahar) bosqichi bo'lib, oktabr oyining uchinchi o'n kunligida quyidagi 1 ta shart asosida o'tkaziladi:

**“Tezkor savol-javob” sharti.**

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 4 ta savolga 4 ta javob berish so'raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratilmaydi, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar (har bir yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan jami 3 nafar) to'rtinchi (hududiy) bosqichga yo'llanma oladi.

**To'rtinchi bosqich** tanlovning hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi bo'lib, noyabr-dekabr oylari davomida quyidagi 2 ta shart asosida o'tkaziladi:

**“Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.**

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan o'zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblarning mazmun-mohiyati, g'oyasi va ahamiyatini ishtirokchilardan sharhlab berishi so'raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar badiiy asar nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

**“Tezkor savol-javob” sharti.**

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 5 ta savolga 5 ta javob berish soʻraladi. Ishtirokchi bilimni tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratilmaydi, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar (jami 3 nafar) Respublika bosqichiga yo'llanma oladi.

**Beshinchi bosqich** tanlovning Respublika bosqichi bo'lib, kelgusi yilning mart oyi davomida teletanlov shaklida, quyidagi 5 ta shart asosida o'tkaziladi:

**1-shart. "Badiiy asarlar bilimdoni" sharti.**

Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod o'qib eshittiriladi. Ishtirokchidan ushbu asar nomini topishi hamda uning mazmun-mohiyati, g'oyasi va ahamiyati to'g'risida sharhlab berishi soʻraladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchining bilimni tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Tayyorgarlik ko'rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi. Asar nomi to'g'ri topilganda 50 ball qo'yiladi (topilmasa 0 ball) hamda ishtirokchiga asar nomini topolmasa ham sharhlash imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

**2-shart. "Tezkor savol-javob" sharti.**

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 5 ta savolga 5 ta javob berish soʻraladi. Ishtirokchi bilimni tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratilmaydi, savol o'qilishi bilan 10 soniya ichida javob berishi lozim, javoblar uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

**3-shart. "Buyuk mutafakkir va adib" sharti.**

Ushbu shartda ishtirokchilar ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko'rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi.

Ishtirokchilardan ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari hayoti, faoliyati va ijodi haqida ma'lumot berishlari soʻraladi. Ishtirokchining bilimni tekshirish maqsadida Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Har bir ulug' allomalar, o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari to'g'risida ma'lumot berganlik uchun 100 ballgacha baho beriladi.

#### **4-shart. “She’riyat” sharti.**

Ushbu shartda ishtirokchilar Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan she’riy parchani davom ettirishi hamda mazmun-mohiyatini sharhlab berishi so‘raladi.

Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

She’riy parchani topgani uchun 50 ball (aks holda 0 ball) hamda ishtirokchiga she’riy parchani topolmasa ham sharhlash imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

#### **5-shart. “Kvest” sharti.**

Ushbu shartda ishtirokchilardan berilgan adabiyotlar asosida tuzilgan boshqotirmalar, muammoli vazifalarni yechish talab etiladi. Ishtirokchilarga shartni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt belgilanadi.

Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

13. Tanlovning tuman, hududiy va Respublika bosqichlari bo‘lib o‘tadigan joyi, sanasi Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi hamda 3 kun oldin ishtirokchilarga ma’lum qilinadi.

14. Tanlovlar jarayonida foydalaniladigan savollar va testlar majmuasi Ekspertlar komissiyasi tomonidan tanlovning barcha bosqichlari uchun alohida tuziladi, maxsus konvertlarga solinib, muhrlanadi hamda joylarga yetkaziladi.

15. Tanlovning Respublika bosqichida yuqoridagi shartlar mavzusi saqlangan holda, shartlar mazmuni va tartibi teletanlovga moslashtirilgan shaklda o‘tkazilishi mumkin.

16. Tanlovning har bir bosqichida shoir-yozuvchilar, o‘qituvchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay’atlari tuziladi.

Hakamlar hay’ati ishtirokchilarni baholashda ularning belgilangan kitoblarni o‘qiganini tekshiradi hamda mohiyatini to‘g‘ri tushungani, til qoidalariga amal qilishi, aniq raqam va tahlillarga asoslanishi, fikrini bayon qilish qobiliyatini inobatga oladi.

17. Tanlovning saralash bosqichi o‘tadigan kundan kamida uch oy oldin belgilangan kitoblar ro‘yxati e‘lon qilinadi hamda kitoblar ro‘yxatini tuzishda ishtirokchilarning yosh toifasi inobatga olinadi.

18. Barcha shartlar bo‘yicha umumiy ballar qo‘shib hisoblanganda eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan ishtirokchi tanlov g‘olibi deb topiladi. Agar ishtirokchilar o‘rtasida umumiy to‘plangan ballar teng kelib qolgan taqdirda, I, II va III o‘rinlarni taqsimlash Hakamlar hay’ati a‘zolari tomonidan hal etiladi. Bunda ballari teng kelib qolgan ishtirokchilarga qo‘shimcha 5 tadan test savollari beriladi. Shundan so‘ng ham ularning javoblari bir xil chiqsa, bu jarayon g‘olib aniqlangunga qadar davom etadi.

19. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 3 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Tashkiliy qo'mitaga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

20. Tashkiliy qo'mita 10 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilib, yangi qaror qabul qilish.

21. Tashkiliy qo'mita apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

#### IV. G'oliblarni taqdirlash

22. Tanlov g'oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

a) Tanlovning tuman (shahar) bosqichi g'oliblari:

uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri sovg'a, hududiy bosqichiga yo'llanma va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri sovg'a va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri sovg'a va diplom bilan taqdirlanadi.

b) Tanlovning hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi g'oliblari:

uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri Respublika bosqichiga yo'llanma, diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri noutbuk, diplom bilan;

uchta yosh toifasida 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri planshet, diplom bilan;

uchta yosh toifasida qolgan barcha ishtirokchilar sovg'a va sertifikat bilan taqdirlanadi.

d) Tanlovning respublika bosqichi g'oliblari:

uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri **“Prezident sovg'asi” yengil avtomobil (elektromobil)** va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri **75 mln (yetmish besh million)** so'm pul mukofoti va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri **50 mln (ellik million)** so'm pul mukofoti va diplom bilan;

Respublika bosqichining qolgan barcha ishtirokchilari 10 mln (o'n million) so'mdan pul mukofoti va sertifikat bilan taqdirlanadi.

#### **V. Yakuniy qoidalar**

23. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

Yoshlar ishlari agentligi mablag'lari;

mas'ul ijrochilarning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.